

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

ABDURAXMANOV BAXTIYOR MUMINALIYEVICH

**BACHADON NAYLARI INTRAKANALIKULYAR YOPIQLIGINI
TIKLASHNING OPTIMALLASHTIRILGAN USULI**

14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contentsof dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abduraxmanov Baxtiyor Muminaliyevich

Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqiligini tiklashning
optimallashtirilgan usuli..... 5

Абдурахманов Бахтиёр Муминалиевич

Оптимизация метода восстановления интраканаликулярной
непроходимости маточных труб..... 27

Abduraxmanov Bakhtiyor Muminaliyevich

Optimized method to restore intracanalicular
occlusion of the fallopian tubes..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BRRUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

ABDURAXMANOV BAXTIYOR MUMINALIYEVICH

**BACHADON NAYLARI INTRAKANALIKULYAR YOPIQLIGINI
TIKLASHNING OPTIMALLASHTIRILGAN USULI**

14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tib3680 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida bajarilgan.
Dissertasiya avtoreferati uch tilde (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saxifasida (www.tashpmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar: **Malikova Gulsanam Baxodirovna**
tibbiyot fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar: **Najmutdinova Dilbar Kamaritdinovna**
tibbiyot fanlari doktori, professor

Ruziyeva Nodira Xakimovna
tibbiyot fanlari doktori, dosent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti**

Dissertasiya ximoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti xuzuridagi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025yil «__»_____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent shaxri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223uy. Tel/fax: (+998) 71-262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent shaxri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223uy. Tel/fax: (+998) 71-262-33-14

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «__»_____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «__»_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.V.Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

T.A. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari doktori

D.I.Axmedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qishidagi
Ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda bugungi kunda ayollardagi bepushtlik muammolari dolzarb tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, «hozirda butun dunyo bo'ylab 60-80 million juftlik bepushtlikdan aziyat chekmoqda, bepusht oilaning 40-50% sabablari turmush o'rtog'ining reproduktiv tizimida patologiya aniqlanishi bo'lib, bu holatlarida 60-80% da ayol salomatligi holati bilan bog'liq bo'lmoqda». So'nggi yilliklarda turmush tarzi va atrof-muhit omillarining organizmga ta'sirining sezilarli darajada ko'payishi tufayli ayollarda reproduktiv faoliyati buzilishiga olib kelmoqda. Birlamchi va ikkilamchi bepushtlikni yosharib borayotgani natijasida muammo tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayollar reproduktiv faoliyati buzilishi yuqoriligi o'z navbatida, ushbu patologiyani erta tashxislash, davolash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va uni amaliy tibbiyotga tadbiiq qilishni taqozo etmoqda.

Jahon miqyosida reproduktiv yoshdagi ayollarda ikkilamchi bepushtlikni rivojlanishini oldini olish, uni erta bosqichda tashxislash va davolash chora-tadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada reproduktiv yoshdagi ayollarda bepushtlik kelib chiqishi va rivojlanish xavfi omillarini aniqlash, bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini tiklash, ayollar organizmining fiziologik o'zgarishlariga olib keluvchi omillarni aniqlash, bepushtlikka olib keladigan ayrim biokimyoviy, gormonal va immunologik ko'rsatkichlar holatini baholash ilmiy-tadqiqotlarning ustivor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Shular bilan bir birlamchi bepushtlik xavfini erta tashxislash, olib borish algoritmini ishlab chiqish xamda konservativ va xirurgik davolash chora-tadbirlarining zamonaviy usullarini ishlab chiqish soha mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, jumladan juftliklardagi bepushtlikka olib keladigan omillarni aniqlash, erta tashxislash va asoratlarini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli dasturiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustivor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash» kabi vazifalar belgilangan. Bundan kelib chiqqan xolda aholi salomatligini mustahkamlash, ayniqsa, reproduktiv yoshdagi ayollarda ikkilamchi bepushtlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni yangi jihatlarini aniqlash va davolashning yuqori samarali zamonaviy usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi va 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6610-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohatlar samaradorligini yanada

1. World Health Organization website, 2020., <http://www.who.int/healthinfostatistics>.

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmonlari, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son «O'zbekiston Respublikasida aholiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini taminlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, bachadon nayi omili bepushtlikdan aziyat chekayotgan ayollarning 30-85 foizida kuzatiladi va bepushtlikning peritoneal shakli 9,4-34% hollarda uchraydi [Valle R.F. 2012]. Bepushtlikning bu shakli bachadon naylaridan birining yoki ikkalasining ham anatomik-funksional o'tkazuvchanligining buzilishi va/yoki kichik tos bo'shlig'idagi payvandlash jarayoni bilan tavsiflanadi, odatda yallig'lanish kasalliklari, kichik tos a'zolari, ichaklardagi operatsion aralashuvlar oqibati hisoblanadi; asoratlangan abortlar yoki tug'ilishlar; pelvik qorin kasalliklari (tashqi endometrioz) (Allaire C. 2007, Akhtar K. 2014). Bu shaklda tuxumdonning gormonal funksiyasi buzilmagan, hayz sikli buzilmagan va ovulyativ xususiyatga ega, endokrinopatiyaning klinik ko'rinishlari (semirish, girsutizm, virilizatsiya) mavjud emas.

MDX davlatlari adabiyotlari ma'lumotidan bepushtlikning bu shakli bir yoki ikkala fallopiy naychalarining anatomik va funksional buzilishi va / yoki tos bo'shlig'idagi bitishmalar bilan tavsiflanadi, odatda yallig'lanish kasalliklari, tos a'zolari va ichaklarga jarrohlik aralashuvlar; murakkab abort yoki tug'ish; tos - qorin parda kasalliklari (tashqi endometrioz) asoratlari natijasida namoyon bo'ladi. (Gerasimov A. M. Safarov A. T., Allayarov Ya. N., Xamrayeva L. K. 2020.), (Shermuxeamedova M. P., Xomidova G. J., Nasriddinova K. P. 2022.).

Mamlakatimizda jarrohlik va mikroxirurgiya sohasida ayollarning bepushtligini davolashda ma'lum yutuqlar mavjud. Intrakanalikulyar, ya'ni, tubo-peritoneal bepushtlikni jarrohlik yo'li bilan davolashning endoskopik usullarini sezilarli yutuqlariga qaramay, uning samaradorligi 40-50% dan oshmaydi (Amerxanova X. S., Sallagova L. V., Kabulova I. V. 2019.). Samaradorlikning pastligi, asosan, surunkali yuqumli jarayonning oqibatlari bilan bog'liq reproduktiv tizim organlaridagi og'ir morfologik va funksional o'zgarishlar, shuningdek, uni davolashning umumiy qabul qilingan usullarining past samaradorligi bilan bog'liq.

Bugungi kunda miosalpinksning aylana muskullari ligature tomonidan 8 ta joyidan tukilgan joyda chandiq to'qimasi hosil bo'lib, kanal bo'shlig'ining ochiqqligini toraytiradi va bachadon nayining qisqarish va evakuatsiya funksiyasini buzadi. Shu bilan birga, bachadon nayini perimetri bo'ylab tikuv material bilan

miosalpinksni ushlab zonasi hisobiga chandiq to'qimalarining shakllanishi bachadon nayi miometriysida, ko'pincha miosalpinksning kontraktil faolligining buzilishiga, bu sohada endosalpinks funksiyasining buzilishiga olib keladi, bu esa erkak gametalarini va urug'lantirilgan tuxum hujayrani fallopiy naylari bo'ylab tashishini buzishi mumkin, bu operatsiya qilingan ayollarda generativ funksiyani tiklash ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga, fallopiy naylarining o'tkazuvchanligini jarrohlik yo'li bilan tiklashning zamonaviy mikrojarrohlik texnikasini takomillashtirish ginekologiya amaliyotida dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Sanab o'tilgan muammoga bog'liq ushbu masalalar batafsil o'rganilishi talab etiladi, bu esa ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Sog'liqni saqlashni boshqarishning axoli xayot sifatini yaxshilash va kasalliklar profilaktikasiga qaratilgan zamonaviy usullari» (2020-2023 yy.) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini tiklashning optimallashtirilgan usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

quyonlarda eksperimental ravishda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning yangi jarrohlik usulini ishlab chiqish;

eksperimental quyonlarda umumiy qabul qilingan va o'ziga xos yangi usul bo'yicha operatsiyadan keyin chandiq zonasi xamda bachadon nayi gistomorfologik tuzilishini aniqlash;

intrakanalikulyar bepushtligi mavjud ayollar generativ funksiyasini tiklash maqsadida ishlab chiqilgan usulda bachadon nayi o'tkazuvchanligini aniqlash;

ayollar bachadon nayi o'tkazuvchanligi va generativ funksiyasini tiklash samaradorligini retrospektiv baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2003-2023 yillarda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi ko'p tarmoqli klinikasi ginekologiya bo'limida bachadon naylarining intrakanalikulyar bepushtligi bilan jarroxlik amaliyotini o'tkazgan 90 nafar bemor va xomiladorlikni rejalashtirgan generativ yoshdagi 20 nafar somatik sog'lom ayollar retrospektiv va prospektiv taxlillari xamda 30 ta eksperimental quyonlar olindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida jinsiy a'zolar to'qimalari gistomorfologik tadqiqotlar uchun olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda umumklinik, jinsiy yo'l orqali yuqadigan infeksiyalarni tashxislash, ginekologik (qinni tozalik darajasini aniqlash, gisterosalpingografiya, kolposkopiya, kimografik pertubatsiya, gisterofallopokopiya, gisterosalpingografiya) jarroxlik, eksperimental, gistomorfologik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eksperimental quyonlarda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning ishlab chiqilgan yangi usulida o'tkazilgan jarroxlik amaliyotidan keyin tajribaning 15, 45 va 90-kunlarida fallopiy naylari anastomozi soxasida chandiqlik paydo bo'lmasligi gistomorfologik tadqiqotlar orqali isbotlangan;

ayollar bepushtligining intrakanalikulyar genezida fallopiy naylarning artifitsial bog'lash (20%), intraoperativ shikastlanish, ya'ni bachadon naylarini qisman rezeksiyasi (5,6%), nay burchagini tikish (8,9%) xamda salpingitlar (57,8%), gidro-piosalpinkslar (60%), jinsiy yo'l orqali yuquvchi infeksiyalar (JYOYUI) (41,1%) va endometrioz (12,2%) sabab bo'lishi isbotlangan;

ayollarda intrakanalikulyar bepushtlik genezida bachadon fallopiy naylaridagi to'siq joylashgan o'rnini aniq tashxislash va jarrohlik davolashni optimallashtirishda kasallik anamnezi, kimografik pertubatsiya (38,9%), gisterofallopokopiya (4,4%) va gisterosalpingografiya (56,7%) usullaridan foydalanish samaradorligi isbotlangan;

ayollarda intrakanalikulyar bepushtlikda fallopiy naylaridagi to'siqni rezeksiya qilishning yangi usuli va uning anatomik yaxlitligini miosalpinkslar dumaloq mushaklarini ligaturasiga maxkamlamasdan nay kanali perimetriga zich mahkamlash va 4 joyda (6-12-9 va 3 soatda) fallopiy naychi seroz qoplamini vikril tikuvga mahkamlash orqali nay kanalining anatomik yaxlitligi va ochiqligi, endometriosning gistomorfologik tuzilishini sog'lom ayollar darajasida tiklashga imkon berishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quyonlarda eksperimental ravishda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning yangi jarroxlik usuli ishlab chiqilgan;

bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligi bo'lgan ayollarda davolash usulini belgilashda klinik, laborator va instrumental tekshiruvlarning o'ziga xos xususiyatlari asoslangan;

bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini natijasida bepushtligi bor ayollarda jarroxlik amaliyotidan keyin adekvat terapiyani tanlash, tripsin, xemotripsin, medikurtan dori vositalarini qo'llash asoslangan;

intrakanalikulyar o'tkazuvchanlikni tiklash uchun tavsiya etilgan jarrohlik usuli tanlov usuli bo'lishi mumkinligi va klinik samaradorligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, bemorlar sonining yetarli ekanligi, klinik-laborator, ginekologik, jarroxlik, eksperimental, gistomorfologik va statistik tadqiqot usullari yordamida ishlov berilganligi, shuningdek, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini tiklashning optimallashtirilgan usulini ishlab chiqishda quyonlarda eksperimental ravishda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning yangi usulida ishlab chiqilganligi,

ayollar bepushtligining intrakanalikulyar genezi polietiologik ekanligi, intrakanalikulyar bepushtlik genezida bachadon fallopiy naylaridagi to'siq joylashgan o'rnini aniq tashxislashda kimografik pertubatsiya, gisterofalloposkopiya usullaridan foydalanish samaradorligi asoslanganligi, ayollarda intrakanalikulyar bepushtlikda fallopiy naylaridagi to'siqni rezeksiya qilishning yangi usuli va uning anatomik yaxlitligini miosalpinks dumaloq mushaklarini ligaturasiga maxkamlamasdan nay kanali perimetriga zich mahkamlash va 4 joyda (6-12-9 va 3 soatda) fallopiy naycha seroz qoplamini vikril tikuvga mahkamlash orqali nay kanalining anatomik yaxlitligi va ochiqligi, endo-mosalpinksning gistomorfologik tuzilishini sog'lom ayollar darajasida tiklashga imkon berishi isbotlanganligi kasallik patogenezining yangi jihatlarini ochish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligini tiklashning optimallashtirishda bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligi bo'lgan ayollarni davolash usulini belgilashda klinik, laborator va instrumental tekshiruvlarning o'ziga xos xususiyatlari asoslanganligi, kasallik natijasida bepushtligi bor ayollarda jarroxlik amaliyotidan keyin adekvat terapiyani tanlash, tripsin, xemotripsin, medikurtan dori vositalarini ko'llash asoslanganligi, intrakanalikulyar o'tkazuvchanlikni tiklash uchun tavsiya etilgan jarrohlik usuli tanlov usuli bo'lishi mumkinligi va klinik samaradorligi asoslanganligi xamda bachadon naylarining transport, trofik, sekretor va kontraktil funksiyalari to'liq tiklanib, ayollarning generativ funksiyasi ham to'liq biologik darajada tiklanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: quyonlarda eksperimental ravishda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning ishlab chiqilgan yangi usulida o'tkazilgan jarroxlik amaliyotidan keyin tajribaning 15, 45 va 90-kunlarida fallopiy naylari anastomози soxasida chandiq paydo bo'lmasligi gistomorfologik tadqiqotlar orqali isbotlanganligi bo'yicha «Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2023 yil 30-noyabrdagi 7p-r/55-sonli xulosasi). bilan tasdiqlangan. Mazkur taklif Toshkent shaxar 2-tumanlararo perinatal markazi bo'yicha 28.12.2023 yildagi 28-sonli hamda Toshkent viloyati Ohangaron tumani tibbiyot birlashmasi bo'yicha 23.01.2024 yildagi 298-10-I 34-TB12024-sonli buyruqlari bilan amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi ilmiy texnik kengashining 2024 yil 15 iyuldagi 03/04-son ma'lumotnomasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** quyonlarda eksperimental ravishda bachadon naylari o'tkazuvchanligini tiklashning ishlab chiqilgan yangi usuli o'z navbatida, usulni ayollarda qo'llash fallopiy naylari anastomози soxasida chandiq paydo bo'lmasligi va bepushtlik rivojlanishi ehtimolini oldini olish imkonini beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy**

samaradorligi: bemorning shifoxonada yotib davolanish muddatini 10 kundan 6 kungacha qisqartirib, shifoxonada bo'lish davrining 4 kunga qisqartirilishi 880000 so'mni tashkil qilgan, 20 nafar bemorga 17600000 so'm ortiqcha sarf xarajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** bemorlarni stasionar sharoitida davolanishdagi yangi davolash usullarini qo'llanilishi 1 nafar bemor xisobiga byudjet mablag'larini 880000 so'mga va byudjetdan tashqari mablag'larni 880000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

ikkinchi ilmiy yangilik: ayollar bepushtligining intrakanalikulyar genezida fallopiy naylarning artifatsial bog'lash, intraoperativ shikastlanish, ya'ni bachadon naylarini qisman rezeksiyasi, nay burchagini tikish xamda salpingitlar, gidro-piosalpinksalar, jinsiy yo'l orqali o'tadigan infeksiyalar (JYOO'I) va endometrioz sabab bo'lishi isbotlanganligi bo'yicha «Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2023 yil 30-noyabrdagi 7p-r/55-sonli xulosasi). bilan tasdiqlangan. Mazkur taklif Toshkent shaxar 2-tumanlararo perinatal markazi bo'yicha 28.12.2023 yildagi 28-sonli hamda Toshkent viloyati Ohangaron tumani tibbiyot birlashmasi bo'yicha 23.01.2024 yildagi 298-10-I 34-TBI2024-sonli buyruqlari bilan amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi ilmiy texnik kengashining 2024 yil 15 iyuldagi 03/04-son ma'lumotnomasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** ayollar intrakanalikulyar yopiqqligi genezida fallopiy naylarida o'tkazilgan jarroxlik amaliyotlari, gidro-piosalpinksalar, jinsiy yo'l orqali o'tadigan infeksiyalar va endometrioz sabab bo'lishi isbotlanganligi, o'z navbatida, bepushtlik rivojlanishi ehtimolini oldini olish imkonini beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** bemorning shifoxonada yotib davolanish muddatini 10 kundan 6 kungacha qisqartirib, shifoxonada bo'lish davrining 4 kunga qisqartirilishi 880000 so'mni tashkil qilgan, 15 nafar bemorga 13200000 so'm ortiqcha sarf xarajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** bemorlarni stasionar sharoitida davolanishdagi yangi davolash usullarini qo'llanilishi 1 nafar bemor xisobiga byudjet mablag'larini 880000 so'mga va byudjetdan tashqari mablag'larni 880000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

uchinchi ilmiy yangilik: ayollarda intrakanalikulyar bepushtlik genezida bachadon fallopiy naylaridagi to'siq joylashgan o'rnini aniq tashxislash va jarrohlik davolashni optimallashtirishda kasallik anamnezi, kimografik pertubatsiya, gisterofalloposkopiya usullaridan foydalanish samaradorligi asoslanganligi bo'yicha «Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2023 yil 30-noyabrdagi 7p-r/55-sonli xulosasi). bilan tasdiqlangan. Mazkur taklif Toshkent shaxar 2-tumanlararo perinatal markazi bo'yicha 28.12.2023 yildagi 28-sonli hamda Toshkent viloyati Oxangaron tumani tibbiyot birlashmasi bo'yicha 23.01.2024 yildagi 298-10-I 34-TBI2024-sonli buyruqlari bilan amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash

vazirligi xuzuridagi ilmiy texnik kengashining 2024 yil 15 iyuldagi 03/04-son ma'lumotnomasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** bachadon naylarini intrakanalikulyar to'siq joylashgan o'rnini aniq tashxislash va jarrohlik davolashni optimallashtirishda kasallik anamnezi, instrumental tekshiruvlar - kimografik pertubatsiya, gisterofalloposkopiya usullaridan foydalanish, o'z navbatida, bepushtlik rivojlanishi ehtimolini oldini olish imkonini beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** shifoxonada yotib davolanish muddatini 10 kundan 6 kungacha qisqartirib, shifoxonada bo'lish davrining 4 kunga qisqartirilishi 880000 so'mni tashkil qilgan, 25 nafar bemorga 22000000 so'm ortiqcha sarf xarajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** bemorlarni stasionar sharoitida davolanishdagi yangi davolash algoritmini ishlab chiqilganligi 1 nafar bemor xisobiga byudjet mablag'larini 880000 so'mga va byudjetdan tashqari mablag'larni 880000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

to'rtinchi ilmiy yangilik: ayollarda intrakanalikulyar bepushtlikda fallopiy naylaridagi to'siqni rezeksiya qilishning yangi usuli va uning anatomik yaxlitligini miosalpinks dumaloq mushaklarini ligaturasiga maxkamlamasdan nay kanali perimetriga zich mahkamlash va 4 joyda (6-12-9 va 3 soatda) fallopiy naycha seroz qoplarni vikril tikuvga mahkamlash orqali nay kanalining anatomik yaxlitligi va ochiqligi, endo-mosalpinksning gistomorfologik tuzilishini sog'lom ayollar darajasida tiklashga imkon berishi isbotlanganligi bo'yicha «Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli» nomli uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2023 yil 30-noyabrdagi 7p-r/55-sonli xulosasi) bilan tasdiqlangan. Mazkur taklif Toshkent shaxar 2-tumanlararo perinatal markazi bo'yicha 28.12.2023 yildagi 28-sonli hamda Toshkent viloyati Oxongaron tumani tibbiyot birlashmasi bo'yicha 23.01.2024 yildagi 298-10-I 34-TB12024-sonli buyruqlari bilan amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi ilmiy texnik kengashining 2024 yil 15 iyuldagi 03/04-son ma'lumotnomasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini jarroxlik yo'li bilan davolash bepushtlik rivojlanishini oldini olish xamda bemorlarni xayot sifatini oshirishi isbotlangan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** shifoxonada yotib davolanish muddatini 10 kundan 6 kungacha qisqartirib, shifoxonada bo'lish davrining 4 kunga qisqartirilishi 880000 so'mni tashkil qilgan, 90 nafar bemorga 79200000 so'm ortiqcha sarf xarajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** bemorlarni stasionar sharoitida davolanishdagi yangi davolash algoritmini ishlab chiqilganligi 1 nafar bemor xisobiga byudjet mablag'larini 880000 so'mga va byudjetdan tashqari mablag'larni 880000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xotima, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobevasiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bachadon naylari intrakanalikulyar yopiqligini tiklashning optimallashtirilgan usuli (adabiyotlar sharxi)**» deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar tahlili keltirilgan bo'lib, mazkur bob yetti fasldan iborat. Mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, horijiy va mahalliy adabiyotlar taxlili batafsil yoritilgan hamda bachadon naylari fiziologiyasi va patofiziologiyasi, bachadon naylari yopiqligini tashhishtash va uni davolash usullari, bachadon naylari bepushtligi bilan og'rikan bemorlarni davolashda mikrojarrohlik va endoskopik jarrohlik, amaliyotdan keyingi asoratlar profilaktikasining ahamiyatiga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar atroflicha talqin etilgan bo'lib, ushbu muammoning hal qilinmaganligi va aniqlashtirilishi kerakligi asoslangan.


Dissertatsiyaning «**Tekshirilgan bemorlar tavsifi va qo'llaniladigan tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida klinik materialning umumiy xarakteristikasi, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi ko'p tarmoqli klinikasi ginekologiya bo'limida 2003-2023yillar oralig'ida 90 nafar bemorlar bachadon naylarining intrakanalikulyar yopiqligi tashxisi bilan davolangan bo'lib, ularda yangi innovasion taklif etilgan yangi usul asosida jarroxlik amaliyoti o'tkazilgan. Toshkent shaxridan 34 nafar, Jizzax viloyatidan 3 nafar, Toshkent viloyatidan 24 nafar, Surxondaryo viloyatidan 7 nafar, Sirdaryo viloyatidan 2 nafar, Farg'ona viloyatidan 3 nafar, Namangan viloyatidan 2 nafar, Buxoro viloyatidan 2 nafar, Andijon viloyatidan 1 nafar, Qashqadaryo viloyatidan 5 nafar, Qoraqalpoq avtonom Respublikasidan 1 nafar va chet el fuqarolari Qozog'iston Respublikasidan 4 nafar va Tojikiston Respublikasidan 2 nafarini tashkil qilgan. Bemorlarni klinik tadqiqotida tekshiruv spektoriga bemorning shikoyati, intrakanalikulyar asosli ikkilamchi bepusht bo'lgan bemorlarni generativ anamnestik tarixi, ob'yektiv ko'rik, klinik-laborator va instrumental tekshiruvlari, er-xotinlarning jinsiy yo'l orqali o'tadigan infeksiyasi (gonoreya, mikst-infeksiya: trixomoniaz va VPG 2, VPG 2, xlamidiy, mikoplazma urogenitalis), OIV, OITS, RW va boshqa jinsiy yo'l orqali o'tadigan infeksiyalari tekshiruvlarini o'z ichiga oladi. Barcha tekshiriluvchi ayollarda ob'yektiv ko'rikdan tashqari, ularni menstrual va generativ funktsiyalarini o'rganishdan tashqari, anamnestik tarixi

bilan tanishib chiqilganidan so'ng, ginekologik bimanual tekshiruvlar o'tkazilgan xamda zaruriyat yuzasidan, instrumental tekshiruv bachadon naylari yopiqqligi genezini aniqlash imkonini beradigan gisterosalpingografiya tadqiqotlari o'tkazildi. Barcha bemorlarga klinik-anamnestik, funksional tekshiruvlar va laboratoriya tekshiruvlari amalga oshirilgan. Olingan tadqiqot natijalarini statistik ishlash Acer Aspire 3 shaxsiy kompyuterida Microsoft Office Excel 2016 dasturi va 13.0 versiyasining statistik ishlash funktsiyalaridan foydalanib o'tkazildi. O'rganilayotgan o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (M), o'rtacha kvadrat og'ish, o'rtacha (m) standart xato, nisbiy kattaliklar (chastota,%) hisoblangan variatsion parametrik va parametrik bo'lmagan statistika usullaridan foydalanilgan. O'rtacha kattaliklarni taqqoslashda olingan hisob-kitoblarning statistik qiymati Styudent mezonidan (t) foydalanib, taqsimlanishning normalligi (ekssess mezoni bo'yicha) va bosh dispersiyalarning tengligi (F — Fisher mezoni) ni tekshirishda xato (R) ehtimolini aniqlash orqali hisoblangan. sertasiya mavzusi bo'yicha hayvonlarda olib borilgan ilmiy natijalarga asoslangan tadqiqotlar, ya'ni an'anaviy va yangi usulni qo'llash orqali bachadon naylari o'tkazuvchanligini tekshirishni o'z ichiga olgan.

Dissertasiyaning «**Tajribaviy va gistomorfologik tadqiqotlar**» deb nomlangan uchinchi bobida tajribaviy tadqiqotlar Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Markaziy Ilmiy Tadqiqotlar Laboratoriyasida o'zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan. Bizning tomonimizdan taklif etilgan yangi usul soat siferblati 12-3-6-9 bo'yicha sero-seroz choklarni stend yordamida qo'yishdan iborat bo'lib, quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:



Rasm 1. sero-seroz choklarni stend yordamida qo'yish



Rasm 2. sero-seroz choklarni stend yordamida qo'yish

Uchinchi bobning «Gistomorfologik tadqiqotlar» deb nomlangan bo'limida esa tajribaviy tadqiqotlarni olib borishda foydalanilgan hayvonlar (quyonlar) da bachadon ravog'ini me'yordagi gistologik tuzilishi va mavzu bo'yicha chandiqlik

sohasida bachadon shoxlari to'qimalarining gistomorfologik tuzilishi ilmiy asoslangan holda bayon etilgan Gistomorfologik tadqiqotlar TTA elektron mikroskopik laboratoriyasida prof. Yoldoshev A.Yu. rahbarligi ostida uch bosqichda, ya'ni, jarroxlilik amaliyotlarini 15, 45 va 90-kunlari amalga oshirilgan, bu esa insonni 90, 270 va 540-kunlik tiriklik kalendar davriga to'g'ri keladi.

Gistomorfologik tuzilishni o'rganish quyidagicha o'tkazildi, ya'ni: 12%li neytral formalin eritmasidan spirtli eritma bilan to'liq suv oqimidan keyin olingan to'qimalar araldit yoki parafinga quyildi. Ultratom LKB-4800 (Shvesiya) yordamida qalinligi 1-2 mikron bo'lgan yarim yupqa muhit olindi va asosiy fuksin va metilen ko'ki bilan bo'yalgan. Deparafinizasiyadan keyin qalinligi 5-6 mikron bo'lgan parafinli muhitlari gematoksilin va eozin bilan bo'yalgan.

Butun uzunligi bo'ylab, bachadon naychasining distal qismidan tashqari, chekkalar (fimbriyalar) bilan tugaydigan joylardan tashqari, bachadon shoxlari 3 qatlamga ega: shilliq qavat, mushak va seroz membranalar. Shilliq qavat – eng murakkab bo'lib, baland burmalar hosil qiladi va epiteliy va o'zining plastinkasidan iborat. Jarrohlik amaliyoti vaqtida olingan bachadon ravog'i tuzilishi: endosalpinks ikki epiteliy – kiprikchali va sekretor hujayralardan iborat. Kiprikli hujayralar, sekretor yuqori silindrsimon hujayralar kabi, apikal yuzasida uzunligi 3 mikrongacha bo'lgan kiprikchalarga ega. Yadrolar bazal qismida joylashgan. Yadrodan yuqori yadro zonasi bir hil, eozinofildir.

Sekretor hujayralar ham qutbli. Bazal joylashgan yadro ustida sitoplazma turli darajada eozin bilan bo'yalgan sekretor granulalarni o'z ichiga oladi. Kiprikning apikal yuzasida kiprikchalar yo'q. Bachadon shoxlari shilliq qavatining o'zining plastinkasi bo'shashgan tolali biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'ladi. U cho'zilgan fibroblastlar, limfotsitlar, monotsitlar va desidual hujayralar, kichik kapillyarlarni aniq ajratib turadi.

Mushak membranasi silliq mushak hujayralarining ikkita nozik ajratilgan qatlamidan hosil bo'ladi: ichki dumaloq, tashqi bo'lama. Ikkala qatlam ham bir-biri bilan bog'langan qon kapillyarlari tarmog'i bilan yaxshi ta'minlangan. Shilliq qavat va uni tashkil etgan burmalari yuzasi bir qavatli epiteliy bilan qoplangan bo'lib, sekretor hujayralarni ravon sekresiyasi va shilliq yuzasidagi mukoid moddasining bir xil taqsimlangan ko'rinishida bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shilliq qavat stromasi bir xil tarkibli mezenhial xujayralardan tashkil topgan bo'lib, aksariyat, kapillyar tarmog'iga boy bo'lgan sohalar va siyrak tolali biriktiruvchi to'qimadan iboratligi ma'lum bo'ldi. Shilliq va silliq osti qavati bazal membranasi bir xil qalinlikda, trayektoriyasi aniq, mushak qavatidasilliq mushak tutamlarining qarama-qarshi yo'nalishdagi joylashishi ravon va tutamlar oralig'ida siyrak tolali tuzilmalar aniqlanadi. Yassilangan hujayralar qatlami ostida biriktiruvchi to'qimalarning yupqa plastinkasi va qon kapillyarlari mavjud.

Anastomoz sohasidagi anatomik tuzilish operatsiya qilingan hayvonlarda operatsiyadan 15 – 45 va 90 kun o'tgach o'rganildi.

Bachadon shoxlarining anatomik o'tkazuvchanligi bo'yicha umumiy qabul qilingan usuldan foydalangan holda tiklangandan so'ng o'rganish shuni ko'rsatdiki, har bir 6–chi bachadon nayi kanalida o'tkazuvchanlikning tiklanishi kuzatilmagan

yoki toraygan. Butun perimetr bo'ylab chandiq hosil bo'lishida ishtirok etadigan kollagen tolalarining tartibsiz joylashishi mavjud. Mushak qavati miositlarining tutamlari oraliq idagi anastomozlari atrofida siyrak va dag'al tolali biriktiruvchi to'qimadan tuzilganligi aniqlanib, reparativ regenerasiya asosan susbtitusiya ko'rinishida namoyon bo'lganligi aniqlanadi. Aynan granulyasion to'qima shakllangan soxalarda kollagen tolali tuzilmalarning shakllanishi mushak+fibroz bitishmalarni yuzaga kelganligi va aynan ushbu nuqtada, morfofunktsional jixatdan chandiqlangan o'choqlarda mushak tuzilmalarida turli darajadagi atrofik va gypertrofik o'zgarishlarning bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ko'rinishidan, miyosalpinksni umumiy qabul qilingan yoki an'anaviy usul yordamida operatsiyadan keyin shifo topishida, ba'zi hollarda mushak qatlami o'zining plastinkasining asosiy to'qimasi bilan almashtiriladi. Anastomoz sohasidagi qon tomirlarining qashshoqligi yoki yo'qligi tufayli asosiy moddaning ishlab chiqarilishi faollashadi va bu epiteliyning shilliq qavatning bir qismini yopishiga imkon bermaydi. Umumiy qabul qilingan usul yordamida amalga oshirilgan operatsiyadan 45 va 90 kun o'tgach, bachadon shoxi obliteratsiyasi maydoni yanada aniqroq bo'ladi. Sklerozlash jarayoni – aniq. Kollagen tolalarining qo'pol bulutlari tasodifiy joylashtirilgan va tomirlar yo'q. Faqat ba'zi masofalarda shoxlarning barcha qatlamlari ajralib turadigan joylar qayd etiladi: shilliq, mushak va seroz, bu erda qon tomir to'qimalari aniqlanmaydi. Yangi usul bo'yicha amalga oshirilgan anastomoz zonasida barcha hayvonlarda fallopiy naychalarining o'tkazuvchanligi to'liq tiklandi. Fallopiy nayi yoki bachadon nayining o'rta uchligi soxasida, yangi usulga tiklangan anatomik soxalarning morfofunktsional jihatlaridan biri, mushak va shilliq qavatlarining ravonligini bir xil ko'rinishda bo'lishi, chandiqlangan soxalarda fibromuskulyar komponentlarni dag'al o'zgarishlarsiz, nay bo'shlig'ini anatomik jihatlaridan biri, sekretor hujayralar ajratgan suyuqlikni nay bo'shlig'ida erkin holatda topilishi va harakat trayektoriyasi bo'ylab shilimshiqanmagan bir xil gomogen tuzilmalardan tashkil topganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa, sekretorni shilliq qavat va nay bo'shlig'ida bemalol transportirovka bo'layotganligini va dimlanmaganligini tasdiqlaydi.

Hech qanday holatda fallopiy naychalari kanalining striktura zonasi aniqlanmagan, ya'ni, an'anaviy usuldan foydalangan holda anastomozni yaratishda har oltinchi anastomozda bachadon shoxlari kanalida obstruksiyasi kuzatiladi, ya'ni, 15% da obstruksiya joyida kollagen tolalaridan tashkil topgan chandiq to'qimasi kuzatiladi.

Morfologik nuqtai nazardan, «chandiq sohasi»da epiteliy spektri, miyosalpinks tolalari aniqlandi va mushak tolalarini tarmoq joylariga ajratuvchi dumaloq mushaklarning perimetri bo'ylab biriktiruvchi to'qima mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot zonasida qon tomir-venoz naqsh va limfa kanallarining og'irligi, chandiq to'qimalarining mavjudligi, fallopiy naychasining kanalini to'liq obstruksiyasigacha stenozlanish hodisalari qayd etilmagan.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, operatsiyadan keyingi davrda tikuv proektsiyasida umumiy qabul qilingan usul bo'yicha bachadon naylarini

anastomozlashda dekson tikuvlarini qo'llashda devorning perimetri bo'ylab kengligi 0,4-0,5 sm bo'lgan chandiqlik to'qimasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga, «tepalik shaklida»gi bazal qatlam ham nay kanalida, ham visseral qorin parda ostida paydo bo'ladi, tepalikning balandligi 0,05-0,1 mm gacha yetadi!!! Anastomoz zonasining ba'zi joylarida, aksincha, anatomik tuzilmalarning atrofiyasi va anastomoz to'shagi hududida bachadon nayi devorning yuqurilishi kuzatiladi.

Anastomoz zonasida yangi usul texnikasidan foydalangan holda operatsiya qilingan hayvonlarda bachadon nayi kanalining o'tkazuvchanligi butun uzunligi bo'ylab 100% ga tiklandi.

Anastomoz qo'llanilgandan 15 kun o'tgach, sintetik protektor bilan stentlashning yangi usuldan foydalangan holda bachadon naylarining o'tkazuvchanligi tiklangandan so'ng, har doim o'tkazuvchanlik qayd etilgan; holbuki, umumiy qabul qilingan usul yordamida o'tkazuvchanlik tiklangandan so'ng, 6 ta holatdan birida o'tish qobiliyati yo'q edi.

Operatsiyadan 45 kun o'tgach, anastomozlarning to'liq o'tish qobiliyati anastomozlarda yangi usuli bo'yicha bachadon naychalarining o'tkazuvchanligini tiklash uchun 100% anastomozlangan joylarda qayd etilgan, umumiy qabul qilingan usuldan keyin esa 6 holatdan 4 tasi o'tish qobiliyati tiklanmagan.

Operatsiyadan 90 kun o'tgach, yangi usuli bo'yicha fallopiy naychasining 100% o'tkazuvchanligi aniqlandi va 6 – dan 4 tasida hayvonlarda fallopiy naychasining o'tkazuvchanligi tiklangandan so'ng, umumiy qabul qilingan usul bo'yicha operatsiya qilingan, o'tkazuvchanligi tiklanmagan.

Yangi usul orqali bachadon naychalarining o'tkazuvchanligi tiklanganidan 90 kundan keyin fallopiy naychalari shilliq qavatida odatdagidek bo'ladi, yani me'yordagi ishlovchi nay kanalidan umuman farq qilmaydi.


Operatsiya qilingan hayvonlarda fallopiy naychalari shilliq qavatining tuzilishi operatsiyadan keyin 15-kunga qadar yangi usuli bo'yicha to'liq tiklanadi.

Anastomoz joyini shilliq qavatning o'zining plastinkasida tolali tuzilmalarning to'g'ri joylashishi, shuningdek, mushak membranasidagi silliq mushaklarning ichki va tashqi qatlamining uzluksiz tuzilishi orqali kuzatish mumkin. Yangi usuli bo'yicha operatsiya qilingan hayvonlarda hech qanday holatda fallopiy naychasining kanalida torayishi kuzatilmagan.

Shilliq qavat yuzasida epiteliy uzluksizdir. Anastomoz sohasida, nazorat joylarida (normada) bo'lgani kabi, u yuqori silindrsimon shaklga ega va kiprikli va sekretor hujayralardan iborat.


Umumiy qabul qilingan usul bo'yicha operatsiya qilingan hayvonlarda, ya'ni, bachadon naylarini «kones kones» usuli bo'yicha 8 joyda bachadon nayining perimetri bo'ylab dekson choklarini qo'llash orqali tikilganda, bachadon naylari shilliq qavatining tuzilishida 0,2-0,3 sm gacha dumaloq mushaklarni ligaturaga mahkamlash bilan davtiy xarakterlik aniqlanadi. Shilliq qavatning o'zining plastinkasining tolali tuzilishi ham vaqti-vaqti bilan bo'lib, tasodifiy joylashgan. Mushak membranasidagi silliq mushaklarning ichki va tashqi qatlamlari bachadon nayining butun perimetri bo'ylab davtiy xarakterga ega, ya'ni, dumaloq

mushakning bu bo'laklari, aftidan, chandiq zonasida kontraktil faollikni ta'minlay olmaydi, buning natijasida jinsiy hujayralar va zigotaning nay kanalida chiziqli o'tkazuvchanligi buziladi, ya'ni, umuman fallopiy naychasining transport, kontraktil va sekretor faoliyatlari buziladi (rasm №3).



Rasm 3. An'anaviy usul orqali bachadon naychalarining o'tkazuvchanligi tiklanganidan 90 kundan keyin anastomozlangan fallopiy naychalari chandiq sohasida tepalik shaklidagi qatlam(1). Bo'yoq: G-E bo'yalishi 10; qayta ishlanishi 100.

Biz taqdim etgan morfologik tadqiqotlar doirasi shuni ko'rsatdiki, operatsiyadan keyingi davrda an'anaviy usul bo'yicha bachadon naylarining o'tkazuvchanligi tiklangandan so'ng, ko'pincha anastomoz zonasida tikuv chizig'i proektsiyasi orqali gipertrofiya yoki atrofiya joylari hosil bo'ladi: kollagen chandiq to'qimasi juda o'sadi yoki aksincha, ingichka bo'ladi, qon tomirlari bo'lmaydi. Anatomik tuzilmalar hududida atrofik xususiyatga ega bo'lgan hujayra elementlari mavjud, tomirlar deyarli yo'q. Yuqorida aytilganlarning barchasi anastomoz zonasida fallopiy naychasining tuzilishini ushbu ishda biz qo'ygan maqsad darajasiga qaytarish imkoniyatini taxmin qilishimizga imkon bermaydi.



Rasm 4. Yangi usul orqali bachadon naychalarining o'tkazuvchanligi tiklanganidan 90 kundan keyin bachadon nayini shilliq qavatini chandiqsiz baland burmalari. Bo'yoq: G-E, bo'yalishi 10; qayta ishlanishi 40.

Yangi modifikatsiyasidan foydalangan holda bachadon naychasining o'tkazuvchanligini tiklagandan so'ng dori vositalarining morfologik tuzilmalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, operatsiyadan keyingi davrda, 15, 45 va 90 – kuzatuv kunlaridan so'ng, gistomorfologik kuzatuvda, anastomoz sohaslarida destruksiya to'qimalari aniqlanmagan. Fallopiy naychalarining anastomoz sohasida perimetrining torayishi yoki kengayishi uchun joylar yo'q, endosalpinks epiteliy yuzasida «silliq» sohalari yo'q. Bachadon naylarining devori gistostruktura bo'yicha normal ishlaydigan fallopiy naychalari bilan bir xil (rasm №4).

Yuqorida aytilganlarning barchasi tug'ish yoshidagi ayollarda bepushtlikning quvurli – obturatsiya genezisi bilan bizning usulimiz bo'yicha fallop naychalarida rekonstruktiv operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish mumkinligiga ishonishga asos beradi.

Shuni esda tutish kerakki, hatto fallopiy naychasidagi obstruktsiya joylari kesilgan bo'lsa ham (4 – 5 joyda), bachadon naylarining anatomik yaxlitligini va uning o'tkazuvchanligini tiklash mumkin. Bunday hollarda, birinchi navbatda, nay kanali stentga bog'lanishi va taklif qilingan usul bo'yicha anastomoz amalga oshirilishi kerak. Kanaldagi stend sifatida «bo'kuvchi» intrakanal tarzda kiritilgan quruq ketgut ikkinchisining kanalini atravmatik ravishda kengaytiradi, bu klinik amaliyotda generativ funktsiyani tiklash nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Shuni esda tutish kerakki, fallopiy naylarining o'tkazuvchanligi tiklangandan so'ng, ikkinchisining uzunligi kamida 7 sm bo'lishi kerak, chunki bu uning transport, sekretiya va trofik funktsiyalarini to'liq biologik hajmda saqlashga imkon beradi.

Xulosalar: bachadon naylarining tiklashga qaratilgan tajribaviy sharoitda, an'anaviy usulda amalga oshirilgan rekonstruktiv amaliyotda bachadon naylarining gistologik nuqtai nazardan anatomik qavatlarida ikkilamchi shikastlanishlar natijasida reperativ regenerasiyaning amalga oshishida morfofunktsional jihatlarining to'liq tiklanmaganligi, jarroxlik amaliyoti soxalarida o'zaro anastomozlangan naycha qirg'oqlarida dag'al va siyrak tolalardan tashkil topgan granulyasion to'qimaning shakllanishi va susbtusiya ko'rinishida amalga oshganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa, bachadon naylarining qayta tiklangan soxalarida aksariyat, ulangan soxadagi shilliq, shilliq osti va mushak qavatlarining o'zaro birikishlarida haychaning makroskopik jihatdan deformatsiyasi va tabiiy fiziologik yo'llardagi o'tkazuvchanlikning yo'qolishi va shilliq qavat yuzalarida dag'al burmalarning shakllanishi bilan davom etganligi aniqlandi. Bu esa, fallopiy naylarining morfofunktsional jihatlarini yo'qolishiga va shilliq qavatni tashkil etgan barcha parenximatov xujayralarida atrofik o'zgarishlar, stromasida sklerotik o'zgarishlarning ustunligi bilan davom etganligi aniqlandi. Bu esa, bachadon nayining rekonstruktiv jarroxlikdan keying davrda ikkilamchi shikastlanishi va o'tkazuvchi yo'llarning obliterasiya va shilliq qavatlarining gistoarhitektonikasi buzilishi bilan davom etganligini tasdiqlaydi. Natijada, an'anaviy usulning samaradorligi juda past ko'rsatkichlar bilan amalga oshganligini ta'kidlaydi.

Biz tomondan taklif etilgan usulda, esa, bachadon nayining barcha anatomik qavatlarida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan rekonstruktiv tajribaviy usulimizda, fallopiy nayining anatomik qavatlaridagi butunlikni kam darajada o'zgarishi, to'qimaning ikkilamchi aoterasiyasi va reparativ regenerasiyanish jarayonida, susbtusiya emas, balki morfofunktsional sohada restitusiya to'liq tiklangan sohalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Natijada, fallopiy naylarining tabiiy o'tkazuvchi yo'llarini tiklanganligi va o'tkazuvchanlikni dinamikada saqlanishini tasdiqlaydi. Aynan tajribaning 60-90 kunlarida shilliq qavatning gistoarhitektonikasini saqlanishi, dag'al chandiqli tuzilmalarning kam darajada shakllanganligi, asosan sekretor hujayralarning funktsional faolligi

saqlanishi yuqori samarali ko'rsatkishlar namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Shakllangan chandiqlar asosan yosh granulyasion to'qimadan iboratligi, tarkibi jixatidan fibroblastlar va siyrak tolali tuzilmalar, oraliqda plazmositlar bilan boyiganligi reparasiya jarayonida aksariyat epitelial tarkibli hujayralarning tiklanganligini ko'rsatadi. Jumladan, yangi taklif etilgan usulda bachadon nayi o'tkazuvchanligi va shilliq qavatning morfofunktsional anatomik qavatlarini to'liq saqlanishi, shilliq qavat bo'shlig'ida sekretning me'yorda harakatlanganligi bilan tushuntiriladi. Bu esa, tuxumdon bachadon orasidagi tunnelni anatomo-fiziologik bog'liqligini ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi tug'ish yoshidagi ayollarda bepushtlikning bachadon nayi – obturatsiya genezisi bilan yangi usul bo'yicha fallopiy naychalarida rekonstruktiv operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish mumkinligiga ishonishga asos beradi.

Dissertasiyaning «**Bemorlarni tekshirish hajmi va usullari**» deb nomlangan to'rtinchi bobi tekshirilgan bemorlarning klinik ta'rifi, ayollarni tekshirilayotgan guruh bilan ginekologik tekshirish natijalari, intrakanalikulyar bepusht bo'lgan ayollarni jarrohlik amaliyotigacha gysterosalpingografiya natijalari, ularni kolposkopik tekshiruvlari, intrakanalikulyar asosli bepusht ayollarni jarrohlik davolashda taktikasiga bag'ishlangan. Bunda materiallar TXKMRMKTkdan olindi. Ya'ni, mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan yangi usulni prospektiv tadqiqot usuli orqali bachadon naylari intrakanalikulyar bepusht 90 nafar tug'ish yoshidagi ayollarda kompleks klinik-laboratorik tekshiruvlar natijalari asosida o'tkazilgan bo'lib, ular asosiy guruhni tashkil etgan. Nazorat guruhiga esa homiladorlikni rejalashtirishni istagan generativ yoshdagi 20 ta somatik sog'lom ayollar tashkil qilgan bo'lib, ularda klinik-laborator, instrumental tekshiruvlar orqali tadqiqotlar o'tkazilgan. Asosiy va nazorat guruhidagi tekshiriluvchi ayollarning klinik anamnestik ma'lumotlarini Pirson usulida korrelyasion bog'liqlik darajalari o'rganilgan.

